

## YANGI INNOVATSIYALAR SARI ILG'OR QADAM.

**Raxmatullayeva Gulbahor***Qarshi shahar 38-umumiy o'rta ta'lim  
maktabining "Texnologiya" fani o'qituvchisi*

Mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal taraqqiy etayotgan bugungi kunda ishlab chiqarishni rivojlantirishga mutaxassislarining texnik salohiyati muhim o'rin tutadi. Umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarining boshlang'ich ko'nikmalari umumtalim maktablarining texnologiya darslarida shakllanishini hisobga olsak mashg'ulotlar davomida o'quvchilarni qiziqishi qobiliyatiga mos kasblar aqliy va jismoniy mehnat turlari bilan yaqindan tanishtirib borish juda muhimdir. Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning kasbiy va mehnat ko'nikmalarini rivojlantirib mustaqil kasb tanlashi hunar egallashiga zamin yaratadi. Maktab o'quvchilariga kasb hunar talablari va ehtiyojlari hamda munosabatlari haqida ma'lumot berish zarur. Ushbu maqsadda erishish yo'lida davlatimiz tomonidan juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish mashg'ulot tuzilmasi qo'llaniladigan vositalar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligiga ham bog'liqdir. Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik ijodkorligini oshirish qobiliyati va tafakkurini rivojlantirish dars jarayoniga tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb hunarga to'naltirishni yanada kuchaytirish xalq hunarmandchiligi asoslari uy-ro'zg'or elektronika ishlarini bajarishda kasb hunarga yo'naltirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan. O'quvchilarni kasb hunarga to'laqonli yo'naltirish uchun agar o'tmish allomalarimiz meroslari oqilona o'rganilsa va ta'lim jarayonida foydalanilsa ta'lim mehnat tarbiyasi iqtisodiy va kasbiy tarbiya bilan o'zaro aloqada tashkil etilsa o'quvchilar tomonidan kasb hunar tanlovining to'g'ri amalga oshishi va shu orqali ularni tegishli kasb hunarlarga yo'naltirish imkoniyati ortadi. O'quvchilarda u yoki bu tayyorlov yo'nalishiga qiziqish va moyilliklarini samarali shakllantirishda kasb hunarga yo'naltirishning zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni muhimdir. O'quvchida qiziqish va moyilliklarning shakllanishida uning kasbiy axborotlarni egallaganligi kasb hunarlarga jamiyatning extiyojini bilish muhim ahamiyat kasb etadi hamda yoshlarning ularni ongli asosli tanlashlariga ko'maklashadi o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish xonalarini zamon talablari bo'yicha ishlab chiqilgan me'yorlar asosida jihozlanishi kerak. Lekin bizning 38-o'rta ta'lim maktabda texnologiya xonalari moddiy texnika bazasi bilan ta'minlanmagan. Agar moddiy texnika bazasi bilan taminlansa o'quvchilarning amalda tatbiq etish tushunchalari yanada oshadi.

Maktablarda "Texnologiya" o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan vazifalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatda qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik ijodkorligini oshirish, qobiliyati va tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha bilim ko'nikma, va

malakalarni egallash hamda ularni hayotga qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan. Umumiy o'rta ta'lim muassalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi – o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatga qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

–Materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik ob'ekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rganish;

–Texnik ob'yekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish;

–Texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotga qo'llay olish;

–Texnik va kreativ fikrlash, intellektual qobiliyatni shakllantirish;

–Texnologik jarayon va mahsulotlarni tayyorlashda bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;

–Ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat;

O'z navbatida, o'quv fani dasturiga ham o'zgarishlar kiritildi. Yangi o'quv yilidan boshlab, umumiy o'rta ta'lim maktablarida bu fan boshlang'ich ta'lim yo'nalishida umumlashgan holda, 5-9-sinflarda "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati" yo'nalishlarida o'qitiladi. O'qitishning asosiy maqsadi va vazifalari takomillashtirildi. O'quvchilarda shakllantiriladi. O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiya elementlari kiritildi.

Bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, shuningdek, kelajakda o'zlari xohlagan kasb egalari bo'lishlarida uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan maktabdan tashqari ta'limning ahamiyati katta. "Barkamol avlod" bolalar markazlari maktabdan tashqari ta'lim tizimiga qo'yilgan davlat talablari asosida faoliyat ko'rsatadi. Uning vazifasi bolalarga qo'shimcha ta'lim-tarbiya berish, o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga muvofiq turli kasb-hunarlar bo'yicha boshlang'ich ko'nikmalar hosil qilishdir.

O'quvchilarni erta yoshdan kasb-hunarga yo'naltirish ishlari, albatta, ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kasb turlari bilan tanishtirish hamda o'yinlar orqali turli sohalarga qiziqishni aniqlashdan boshlanadi.

Pedagogik faoliyat – yoshlarni hayotga, mehnatga, Vatan mudofaasiga tsyyorlash uchun xalq oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berish ishi bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan kishilarning mehnat faoliyatidir.

Maktab o'qituvchilarining faoliyati respublikamizda buyuk davlat-jamiyatni quruvchi va unda yashab mehnat qiluvchi yetuk, erkin fikrlovchi inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. O'qituvchining barkamol avlodni tarbiyalash va unda yangi insonga xos sifatalrni tarkib toptirish vazifasi eng oliyjanob, yuksak va murakkab vazifadir. Har bir tarbiyalanuvchi o'z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Ularni o'qitish va tarbiyalashda o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda murakkabdir. Bunga insonlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarning

murakkabligini o‘zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko‘rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. G‘oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O‘zMU, 2003. 156-b
2. Yusupova F. O‘quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta’limi” jurnali. 2005. №5. 90-93-b.
3. Maxmudova D. “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga oid pedagogik faoliyat elementlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash”. Xalq ta’limi jurnali. №3 son, 57-58 bet.
4. <https://uzbekistan.ureport.in/story/364/>
5. <https://t.me/dokument>